ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

„STIKERLAR " VA „GIF" SEMIOTIK BELGI SIFATIDA: PARADIGMATIK TIZIM VA MA'NOLAR KO'LAMi

Namanagan davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistranti: Ergashaliyeva Havoxon

Annotatsiya:Ushbu maqolada zamonaviy raqamli muloqot vositalarida keng qo'llanilayotgan stikerlar semiotik belgi sifatida tahlil qilinadi.Ularning paradigmatik holatlari(ko'plab variantlari) tahlil qilinadi. Muallif stikerlar tizimini paradigmatik munosabatlar asosida ko'rib chiqib, ularning denotativ va konnotativ darajadagi ma'nolari, madaniy kontekstdagi talqinlarini ochib beradi. Paradigmatik tizimda qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida ish olib boriladi.Shuningdek, stikerlarning kommunikativ funksiyasi, ularning emotsional va ijtimoiy yuklamasi semiotik nuqtai nazardan tahlil etiladi.

Аннотация: В данной статье с точки зрения семиотики рассматриваются стикеры, широко используемые в современных цифровых средствах общения. Анализируются парадигматические отношения между различными вариантами стикеров, а также система этих знаков в контексте парадигматических связей. Особое внимание уделяется денотативному и коннотативному уровням значений стикеров, а также их интерпретации в культурном контексте. Кроме того, исследуется значение стикеров в парадигматической системе, их коммуникативная функция, эмоциональная и социальная нагрузка с точки зрения семиотического анализа.

Annotation: This article analyzes stickers, which are widely used in modern digital communication tools, from a semiotic perspective. It examines the paradigmatic relationships among various types of stickers and explores the sticker system within the framework of paradigmatic structures. The study reveals both the denotative and connotative meanings of stickers, as well as their interpretations in cultural contexts. Furthermore, the article discusses the significance of stickers in the paradigmatic system, analyzing their communicative function, emotional impact, and social connotations from a semiotic standpot

Kalit so'zlar: stiker, semiotika, paradigma, konnotatsiya, denotatsiya, kommunikatsiya, belgi, madaniy kod.

Ключевые слова: стикер, семиотика, парадигма, коннотация, денотация, коммуникация, знак, культурный код.

Keywords: sticker, semiotics, paradigm, connotation, denotation, communication, sign, cultural code .

Dunyo rivojlanib borgan sari o'z ta'sirini har sohada ko'rsatadi.Ta'lim ,texnika,madaniyat,san'at,muloqot bularning ayrimlaridir.Ayniqsa,muloqotga to'xtaladigan bo'lsak, uning qiziq va ajablanarli o'zgarishlarini ko'rishimiz mumkin.Avvaldan yozishmalar tur xil maktublarda uzundan uzun so'zlar yordamida olib borilgan bo'lsa,endilikda raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi bilan insonlar o'rtasidagi muloqot vositalari ham o'zgarmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda qo'llaniladigan stikerlar inson his-tuyg'ularini ifodalashda, fikrni qisqa va emotsional tarzda yetkazishda muhim rol o'ynamoqda. Bundan avval ham qadimgi odamlarda muloqot uchun turli ishora va belgilardan foydalanish mavjud edi.Bu holat haqidagi hodisalar hozirga qadar o'rganiladi.Qadimgi Misr,Skandinav,Xitoy , Mesopatamiya davlatining aholisi,Amerikaning astek va maya , Afrikaning aborigen,zulu,dogon qabilalarini bunga

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

misol qilish mumkin.Yana ham tushunarliroq bo'lishi uchun har biriga to'xtalib o'tish lozim.Qadimgi misrliklar iyerogliflardan,Skandinav xalqlari runalardan,xitoyliklar orat suyagi belgilaridan, shummerliklar mixxatdan ,aborigenlar piktogrammadan, maya va asteklar glifdan,dogon va zulu qabilalari milliy belgidan foydalanishgan.Bugungi kunda ommalshib borayotgan stiker va giflar esa bularning zamonaviylashgan shaklidir. Stikerlar — bu grafika vositasida ifodalangan belgilar tizimidir. Ular orqali muloqot jarayonida nutq vositasisiz ham turli emotsiyalar, munosabatlar, hatto ijtimoiy holatlar ifodalanadi. Hatto ayrim odamlar butun suhbatini mana shu stiker va giflarda olib boradi.Bir-birini so'zlarsiz ham yaxshi tushunadi.Chunki Ch.S.Pirs modeli asosida har bir stiker uch elementli belgi tizimiga kiradi:representamen — stikerning tashqi ko‘rinishi ;ob’ekt — bu belgi orqali anglatilayotgan tushuncha ;Interpretant — bu belgining muloqot ishtirokchisi tomonidan qanday talqin qilinishidir .F. de Sossyurga ko‘ra esa stikerning grafik shakli — signifiant, undagi ma’no yuklamasi esa — signifié sifatida talqin etiladi.Bundan tashqari,stikerlar paradigmasi ham bu bilan uzviy bog'liq.Stikerlar paradigmasi — bu mazmunan bog‘liq belgilar tizimi bo‘lib, foydalanuvchi muloqotda ma’lum bir stikerga murojaat qilayotganda alternativ variantlar orasidan tanlov qiladi.Qo'shimcha qilish mumkinki, paradigmani nafaqat stiker va giflarda ,balki, jamiyatdagi har bir so'zlar orasida ko'rish mumkin. Masalan:quvonch va kulgini ifoda etuvchi bir necha variantlar bor.Biz bulardan eng muqobilini tanlaymiz.Raqobattni shakllantiramiz.Bu tizimda har bir stiker boshqa belgilar bilan semantik raqobatda bo‘ladi. Shu orqali tanlangan stiker aynan qanday emotsiyani ifodalashi yoki qanday konnotatsion yuklamaga ega ekani aniqlanadi.Endi stikerlarning konnotativ va denotativ ma'nosini solishtirsh mumkin.Denotativ — stikerning asosiy, literal ma’nosi ;Konnotativ — stikerga yuklangan qo‘shimcha madaniy, ijtimoiy yoki shaxsiy ma’no .Konnotatsiya ko‘pincha madaniy kod bilan bog‘liq bo‘lib, bir xil stiker turli jamiyatlarda har xil talqin qilinishi mumkin.Stikerlar semiotik tizimda universal belgilar sifatida paydo bo‘lsa-da, ularning talqini madaniy kontekst bilan bevosita bog‘liq. Masalan,bizda oddiy kulmoq ma'nosini ifodalovchi ,,american popcorn " stikeri ayrim shtatlarda qayg'u va bekorchilik ma'nosini ifodalaydi.Demak, stikerlar global til sifatida ishlatilgan bo‘lsa ham, ularning ma'nosi kontekstualdir.Stikerlar tili og‘zaki nutqqa qaraganda:tezroq va qulay,qisqa, ammo emotsional yuklama yuqori,har doim bir xil tushunilavermaydi,lekin rasmiylikni pasaytiradi va muloqotni soddalashtiradi.Endi giflarga keladigan bo'lsak,giflar stikerlardan keyin paydo bo'lgan raqamlashtirilgan zamonning asosiy belgilaridan biridir.Ularning farqi shuki,giflar bevosita animatsiyani ya'ni harakatlanayotgan tasvirlarni gavdalantiradi.Ko'pincha mashhur aktyor va aktrisalar,sportchilar rasmi orqali ma'no ifodalaydi.Misol sifatida Tony Stark (temir odam), Tor(chaqmoqlar hukmdori) va boshqalarni keltirish mumkin.Giflar izohiy ma'noda (GIF (Graphics Interchange Format) — bu qisqa, takrorlanuvchi, odatda tovushsiz animatsion rasm bo‘lib, raqamli muloqotda emotsiyalarni, harakatlarni yoki ijtimoiy holatlarni ifodalash vositasi sifatida keng tarqalgan. U ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va bloglarda faol ishlatiladi.GIF-lar oddiy piktogrammalardan farqli ravishda harakat, vaqt va intonatsiyani o‘zida mujassam etadi.Bu jihatdan stikerlar emotsional kommunikatsiyada tilga muqobil vosita sifatida faol ishlatilmoqda.GIF-lar semiotik tizimda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ularni ham xuddi stikerlar kabi Ch.S. Pirs va F. de Sossyur modellari asosida quyidagicha talqin qilish mumkin:Representamen – GIF’ning vizual-harakatli tasviri (masalan, kimdir qarsak chalmoqda),Ob’ekt – ushbu tasvir orqali ifodalanuvchi tushuncha (qo‘llab-quvvatlash, maqtov)Interpretant – bu GIF muloqot ishtirokchisi tomonidan qanday tushuniladi (masalan, birgina kulmoq ma'nosini berish uchun bizda "Tom and Jerry" , ,,Kung Fu Panda " , ,,Smurflar " multfilmlaridan variantlar bo'lishi mumkin.Bunda holatni ifodalash uchun turli alternativ GIFlar

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

orasidan tanlov qilinadi.Bular madaniy, kontekstual yoki hazil aralash tushuncha ifodalashdqn tashqari yuborilgan odamcha o'zgacha kayfiyat va kulgi paydo qiladi.Kontekstga qarab bitta GIF maqtov, istehzo yoki kinoyani anglatishi ham mumkin.Bu holatda anglashinmovchilik bo'lmasligi uchun paradigmalar orasidan eng muboqil variant tanlanadi.Aslida juda oddiy ko'rinsada, birgina gif butun suhbatni chalkashtirishi mumkin.Bunda bizga qulaylik bergan giflar negativ ma'no kasb etadi. Xulosa qilish mumkinki,giflar muloqotda nutqsiz emotsional ifoda vositasi,hazil, kinoya, istehzoni yetkazuvchi element,muloqotni jonlantiruvchi vosita,ba'zida so‘zlarni almashtiruvchi semantik birlik.Bu xususiyatlar ularni mavjud belgilar tizimida yangi turdagi semiotik birlik sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Stikerlar va giflar - bu zamonaviy semiotik belgilardir. Ular paradigmatik tizimda boshqa belgilar bilan raqobatlashadi, turli kontekstlarda turlicha talqin qilinadi va madaniy kodlar orqali boyitiladi. Stikerlarni semiotik va paradigmatik yondashuv asosida o‘rganish raqamli muloqotda belgilar tilining yangi shaklini tahlil qilish imkonini beradi.Bundan tashqari Stiker va GIF-lar zamonaviy raqamli muloqotning ajralmas qismlaridan biriga aylangan. Ular, ayniqsa, yozma muloqotda hissiyot, kayfiyat yoki muayyan g‘oyani ifodalashda katta rol o‘ynaydi. Stiker va GIF-lar odatdagi matnli yozishmalarga hissiy boylik kiritadi. Inson mimikasi, intonatsiyasi va tana harakati yuzma-yuz suhbatda muloqotni to‘ldirsa, raqamli muloqotda bu roldan stiker va GIF-lar foydalaniladi. Vizual elementlar til chegarasidan mustasno bo‘lishi mumkin. Masalan, GIF orqali berilgan reaktsiyani ingliz, rus yoki o‘zbek tilida tushunish mumkin. Bu esa ko‘p tilli auditoriyada umumiy tushunishni ta'minlaydi.Ular raqamli muloqotni boyitadi, hissiy ifodani kuchaytiradi va odamlar orasidagi masofani qisqartiradi. Ular orqali muloqot tez, tushunarli va ko‘ngilochar bo‘ladi. Bugungi kunda ularni kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rganish, hatto tilshunoslik va sotsiologik tadqiqotlar doirasida ham ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Barthes, R. (1977). Image, Music, Text. New York: Hill and Wang.
2. Chandler, D. (2007). Semiotics: The Basics (2nd ed.). Routledge.
3. Eco, U. (1976). A Theory of Semiotics. Indiana University Press.
4. Danesi, M. (2004). Messages, Signs, and Meanings: A Basic Textbook in Semiotics and Communication. Canadian Scholars’ Press.
5. McNeill, D. (1992). Hand and Mind: What Gestures Reveal about Thought. University of Chicago Press.
6. Highfield, T., & Leaver, T. (2016). Instagrammatics and digital methods: Studying visual social media, from selfies and GIFs to memes. Communication Research and Practice, 2(1), 47–62.
7. Miltner, K. M., & Highfield, T. (2017). Never gonna GIF you up: Analyzing the cultural significance of the animated GIF. Social Media + Society, 3(3).
8. Shifman, L. (2014). Memes in Digital Culture. MIT Press.
9. Bakhurst, D., & Sypnowich, C. (1995). The Social Self. SAGE Publications.
10. Qodirova, M. (2022). "Raqamli madaniyat va zamonaviy kommunikatsiya vositalarining tilga ta’siri". O‘zbek tili va adabiyoti, №1, 58–63.
11. Jo‘raev, M. (2021). Til va kommunikatsiya: Zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Fan nashriyoti.
12. Karimova, D. (2023). "Internet kommunikatsiyasida emoji va gif stikerlarning lingvopragmatik xususiyatlari". Filologiya masalalari, №2, 112–117.
13. O‘ralova, G. (2020). "Ijtimoiy tarmoqlarda multimodal matnlarning semiotik tahlili". O‘zbek tilshunosligi axborotnomasi, №3, 95–101.